

**Fuqarolik jamiyati institutlarida ijtimoiy faolliklarni amalga oshirishning  
muhim shakllari**

*Abduxoliqova Husniya Olimjon qizi*

*Samarqand davlat universiteti*

*Kattaqo`rg`on filiali 3-bosqich talabasi*

[abduxoliqovahusniya@gmail.com](mailto:abduxoliqovahusniya@gmail.com)

***Annotasiya.** Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati institutlarini rolini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, mahallalar faoliyatiga oid qarorlar va qonunlar, yana qanday ishlar amalga oshirilsa fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyat doirasi kengayishi bo`yicha taklif va mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so`zlar.** Taraqqiyot strategiyasi, mahalla instituti, konsepsiya, fuqarolik jamiyati, demokratik boshqaruv, ijtimoiy ishchi.*

So`nggi yillarda fuqarolar ishtiroki, o`zini o`zi tashkil etish va ijtimoiy safarbarlikning innovatsion shakllari keng tarqalmoqda. Atrofimizda jamiyat o`zgarmoqda va siyosat ishlab chiqishning yangi usullari paydo bo`lmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda bu sohada keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning tub zamirida inson qadri va huquqlarini himoyasi turibdi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati ham aynan inson, uning sha'ni va qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan desak mubolag'a bo`lmaydi. Masalan, ushbu strategiyaning 1-yo`nalishi Inson qadrini yuksaltirishga va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish deb nomlanishi fikrimizga yaqqol misoldir. Ushbu strategiyaning birinchi maqsadi - "Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo`g`iniga aylantirishga qaratilgan. Jumladan,

hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish”<sup>1</sup>

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Xo‘sh, nega aynan mahallalarni samaradorligini oshirishga ko‘p urg‘u berilmoqda? Chunki fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, tinch-farovon, barqaror rivojlanayotgan demokratik jamiyat barpo etish, inson qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, barqaror rivojlanishning umuminsoniy va milliy maqsadlariga erishishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil ichida mahallalar faoliyatiga oid jami 81ta hujjatlar qabul qilindi. Shulardan 40 tasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20 tasi Prezident qarori bo‘lsa, 13ta Prezident farmoni, qolganlarini qonun osti hujjatlari tashkil etadi. Shuningdek, "O‘zbekiston Respublikasining 2021-2025- yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. Natijada, nodavlat notijorat tashkilotlar soni 22foizga oshdi, jumladan, respublika bo‘yicha 200ga yaqin yirik nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatini boshladi."<sup>2</sup>

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va qadr-qimmatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan ham Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va izchil demokratik islohotlar inson qadr-qimmatini borasida g‘amxo‘rlik qiladigan, har bir fuqaroning qonuniy manfaatlari va farovonligini ta‘minlaydigan, erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga asoslangan davlat qurishga yo‘naltirilgan. Shu ma'noda Yurtboshimizning "Mahalla-jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgidir. Bundan buyon mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idoralar va hokimliklar ishini baholashda bosh mezon bo‘ladi".<sup>3</sup> Bu islohotlarning barchasi fuqarolik jamiyati institutlarini

---

<sup>1</sup> 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi

<sup>3</sup> Sh. Mirziyoyev – Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! 21-bet.

rivojlantirishga qaratilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, fuqarolik jamiyati institutlari qanday rivojlanishi mumkin?

- fuqarolik jamiyati institutlari vakolatlarini kuchaytirish;
- nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik boshqaruv, qarorlar qabul qilish, va monitoring qilishda muhim rol o‘ynashini ta‘minlash;
- fuqarolar tomonidan mahalliy muammolarga o‘zlarining muhim istiqbollari taqdim etishga ko‘maklashish;
- mahalliy aholi hayoti va atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatadigan qarorlar bo‘yicha jamoatchilik muloqotini targ‘ib qilish;
- fuqarolarning farovonligini oshirishda ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha shaffof mexanizmlarni joriy etish hamda ularning aniq vazifalarini belgilash kabi bir qator islohotlar orqali erishish mumkin. Shu boisdan ham O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi farmonini imzoladi.

Hujjatga muvofiq, O‘zbekiston Prezidenti huzurida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat Kengashi tashkil etildi. Ushbu Maslahat Kengashiga " Davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y- harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish "<sup>4</sup> kabi bir qator vazifalar yuklatildi.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga e‘tiborimizni qaratsak, mamlakatni siyosiy-huquqiy jihatdan rivojlantirish bilan bir qatorda, mahallalarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish ham bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Bu borada asosiy mas‘uliyat hududiy kengashlarning zimmasiga tushadi. Yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, "Ma‘naviy targ‘ibot ishlarini har bir mahallada, ta‘bir joiz bo‘lsa, " mahallabay" usulida tashkil etmas ekanmiz, bu borada aniq natija bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

---

<sup>4</sup> Lex.uz

Bunda har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiradigan ishlarimizni aniq belgilab olishimiz va jamoatchilik bilan birgalikda ish olib borishimiz kerak " <sup>5</sup>degan so'zlarida naqadar hayotiy zarurat ekanligini anglashimiz mumkin.

Darhaqiqat, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'z vazifalarini bajarganida, jamiyatlarning o'zini o'zi tashkil etish qobiliyati oshadi, turli xil ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muammolarni tinch, ko'pincha munozarali hal etish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini oshirishda ijtimoiy ishchilar ham alohida majburiyatlarni amalga oshirishi kerak deb hisoblayman. Chunki, aholining yordamga muhtoj qismi haqida gap ketganda, maslahatlashuvlardan tashqariga chiqish, muammoni joyiga borib o'rganish, haqiqatan yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash, ularga ham moddiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish orqali jamiyatning kengroq ishtirokiga erishish va islohotlarga mahalliy fuqarolar darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir mahallada ijtimoiy xodimning bo'lishi bu boradagi ishlarni yanada samarali bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy, madaniy va moddiy jihatdan mustaqil bo'lishlari, siyosiy, ma'muriy, huquqiy jihatdan esa, markaziy hokimiyatga bo'ysunishini ta'minlash orqali ham fuqarolik jamiyati institutlarini rolini oshirish mumkin. Negaki, fuqarolar endi ommaviy a'zolik tashkilotlarida passiv kuzatuvchi bo'lishni xohlamaydilar, balki natijalarni shakllantirishni, qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolroq va ishtirokchi rol o'ynashni xohlashadi. "Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta'minlashi shart" <sup>6</sup>

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati instituti ishtirokchilari jamiyatda muhim rol o'ynashi kerak bo'lgan asosiy ijtimoiy manfaatdor tomonlardir. Endi siyosat

---

<sup>5</sup> Sh. Mirziyoyev – Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. 20-bet.

<sup>6</sup> Sh. Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston strategiyasi. 115-bet.

ishlab chiqishning eski usullari yetarli bo'lmashligi aniq. Fuqarolar o'z so'zini aytishni xohlaydi va hukumatlar ularni jarayonga qo'shishi kerak. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari o'z rolini o'ynashga tayyor, ammo hukumatlar bunga erisha oladimi, buni vaqt ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyoyev – Yangi O`zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Toshkent-2021.
2. Sh. Mirziyoyev – Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g`oyamizning poydevoridir. Toshkent – 2021.
3. Sh. Mirziyoyev – Yangi O`zbekiston strategiyasi. Toshkent – 2021.
4. O`zbekiston Respublikasining 2021-2025- yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent – 2020.
5. 2022-2026- yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

### **Internet saytlari**

1. Lex. uz
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. strategy.uz
4. stat.uz